

bilan qo'shib qo'yadi. Ba'zan o'yinga sport ko'rinishini berish uchun komanda sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturi, Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o'rganib, uni takomillashtirib boradilar, sport

o'yinlari: basketbol, futbol, sport elementlari va hokozalarni egallaydilar.

Yurish va yugurish mashqlari. Yurish va yugurish mashqlarining vazifasi qo'l va oyoqlar harakatlanayotganda muvozanat yaxshi saqlagan holda, erkin harakatlar qilishni o'rgatishdir. Bolalar katta maktabgacha yoshda bir yo'nalishda hamda bir me'yorda yurish va yugurish ko'nikmasini egallay biladilar.

Adabiyotlar

1. Safoyev H.A. Technologies of education of students in the spirit of military patriotism. // Scope academic house b&m publishing. 2020. – S. 8.
2. Safoev H.A. Nekotorye voprosi planirovaniya sportivnoy podgotovki //Academy. 2020. №. 3 (54). – S. 82-84.
3. Balsevich V.K. Fizicheskoy vospitanie rebyonka v seme Fizicheskaya kultura. 1997. №3. - S. 50.
4. Volkov L.V. Fizicheskiy sposobnosti detey i podrostkov. - Kiev: «Zdorove», 1981. - S. 120.

REZYUME. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko'nikmalari ko'lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar)ning rivojlanishi bilan bog'liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o'zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Besh-olti yoshli bolalarda o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o'z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo'ladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье приведены особенности развития основных видов движений дошкольников. На этом этапе обучения расширяется объем двигательных навыков и умений, возникают физические качества (скорость, выносливость, быстрота и др.). Пяти-шестилетние дети обладают определенной подготовкой, чтобы уметь осознанно понимать поставленные перед ними задачи, оценивать ситуацию, управлять своими действиями.

SUMMARY. This article contains specific features of the development of the main types of movement of preschool children. At this stage of training, the scope of movement skills and abilities is expanded, and physical qualities (speed, endurance, quickness, etc.) occurs. Five-six-year-old children have a certain preparation to be able to consciously understand the tasks set before them, assess the situation, and manage their actions.

MUSTAQIL ISHLASH FAOLIYATIDA TALABALARDA TAQQOSLASH METODI YORDAMIDA TEKISLIK VA FAZO TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH

A.B.Sobirova – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: mustaqil ish, ko'nikma, metod, tekislik va fazoda nuqta, kesma, to'g'ri chiziqlar, dekart koordinatalar sistemasi.

Ключевые слова: самостоятельная работа, умение, метод, точка в плоскости и пространстве, сечение, прямые, декартова система координат.

Key words: independent work, skill, method, point in the plane and space, section, straight lines, Cartesian coordinate system.


Kirish. Ushbu maqolada mustaqil ishlash faoliyatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining matematika sohasida tekislik va fazo tushunchalarini taqqoslash metodi yordamida rivojlantirish ko'rsatilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt budjeti, tadqiqot obyekti alohida ahamiyatga ega [1].


Talabalarining mustaqil o'qib o'rganish ko'nikmasini rivojlanish metodlaridan biri haqida to'xtalib o'tamiz. Aynan taqqoslash metodi haqida. Biz bu metodni qo'llash orqali istalgan mutaxassislikda o'qiydigan talaba uchun tekislik va fazoda nuqta berilishi, kesma, kesma uzunligi, kesmani berilgan nisbatda bo'lish, to'g'ri chiziqli va uning berilishi, to'g'ri chiziqlarning o'zaro joylashishi (xususan to'g'ri chiziqli koordinatalar sistemasida) kabi mavzularni soddalik bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Soddalik uchun tekislik va fazo (aynan uch o'lchovli fazo) uchun koordinatalar sistemalaridan dekart koordinatalar sistemasini tanlab olamiz. Eng avvalo, to'g'ri chiziqli koordinatalar sistemasi haqida to'xtalib o'tsak [3].

Taqqoslash metodi orqali tekislik va fazo elementlarini ko'rsatib beramiz.


Nuqta. Mayli bizga tekislikda A nuqta (m, n) koordinatalar bilan berilgan bo'lsin. Koordinatalar sistemasidagi nuqta o'rnini ko'rsatamiz.



Nuqta. Mayli bizga fazoda A nuqta (m, n, p) koordinatalar bilan berilgan bo'lsin. Koordinatalar sistemasida nuqta o'rnini ko'rsatamiz.




Kesma va uning uzunligi. A va B nuqtalarni birlashtirib kesma yasaymiz. Ushbu nuqtalar $A(a_1, a_2)$ va $B(b_1, b_2)$ koordinatalar bilan berilgan bo'lsa kesmaning uzunligini topishni qaraymiz.



Chizmadan ko'rinib turganidek AB kesma to'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasi bo'larkan.


$$|AB| = \sqrt{(a_2 - a_1)^2 + (b_2 - b_1)^2}$$

Kesma va uning uzunligi. A va B nuqtalarni birlashtirib kesma yasay-miz. Ushbu nuqtalar $A(a_1, a_2, a_3)$ va $B(b_1, b_2, b_3)$ koordinatalariga ega kesma uzunligini topamiz



$|A'B'| = \sqrt{(a_2 - a_1)^2 + (b_2 - b_1)^2}$ ekanligi tekislikdagi kesma uzunligidan bizga ma'lum. AB kesma esa ABD to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi bo'ladi. $|AB| = \sqrt{(b_1 - a_1)^2 + (b_2 - a_2)^2 + (b_3 - a_3)^2}$

Nuqtani berilgan nisbatda bo'lish. AB kesmani berilgan nisbatda bo'luvchi C nuqtaning koordinatasini topishni qaraymiz.



mayli bizga berilgan nisbat μ soniga teng bo'lsin. Chizmada A va B nuqtalar koordinatalari bilan berilgan, C nuqtaning koordinatasini (x, y) deb belgilab olganmiz.


$$\mu = \frac{x - a_1}{b_1 - x}, \quad \mu = \frac{y - a_2}{b_2 - y}$$

Yuqorida har ikkala nisbatning tengligi uchburchaklar o'xshashligi xossaligidan kelib chiqadi. Ikkala tenglikdan biz o'zimizga kerak bo'lgan qiymatlarni topib olamiz. $\mu(b_1 - x) = x - a_1, x = \frac{a_1 + \mu b_1}{1 + \mu}$,

$$\mu(x - a_1) = y - a_2, y = \frac{a_2 + \mu b_2}{1 + \mu}$$

mana biz C nuqtaning koordinatalarini topdik.

Nuqtani berilgan nisbatda bo'lish. AB kesmani berilgan nisbatda bo'luvchi C nuqtaning koordinatasini topishni qaraymiz.



Mayli bizga berilgan nisbat μ soniga teng bo'lsin. Chizmada A, B, A' va B' nuqtalar koordinatalari bilan berilgan, C nuqtaning koordinatasini (x, y, z) deb belgilab olib uni topishimiz kerak.


$$\mu = \frac{x - a_1}{b_1 - x}, \mu = \frac{y - a_2}{b_2 - y}, \mu = \frac{z - a_3}{b_3 - z}$$

Yuqorida berilgan uchchala tenglikning bir xil songa tengligi tekislikda AB kesmani C nuqta bilan μ nisbatda bo'lganimiz kabi qilib olamiz. Faqat ushbu holatda AB kesma o'rnida $A'B'$ kesma olingan.


$$x = \frac{a_1 + \mu b_1}{1 + \mu}, y = \frac{a_2 + \mu b_2}{1 + \mu}, z = \frac{a_3 + \mu b_3}{1 + \mu}.$$

Mana C nuqta koordinatalarini topdik.

To'g'ri chiziq. $Ax + By + C = 0$ tenglama tekislikda to'g'ri chiziqning umumiy ko'rinishdagi tenglamasi ekanligini bilishimizni hisobga olgan holda uning boshqa ko'rinishdagi tenglamalarini keltirib chiqaramiz. $Ax + By + C = 0$ tenglamani y ga nisbatan yechamiz. $y = -\frac{A}{B}x - \frac{C}{B}$ ko'rinishga keltirib $-\frac{A}{B} = k, -\frac{C}{B} = b$ kabi belgilab olib $y = kx + b$ tenglamaga ega bo'lamiz. Bu tenglama esa to'g'ri chiziqning burchak koeffitsientli tenglamasi deyiladi.



Chizmadagi α burchak $y = kx + b$ tenglama bilan berilgan to'g'ri chiziqning absissa o'qi bilan musbat yo'nalish bo'yicha hosil qilgan burchagi. Endi α burchak va $y = kx + b$ to'g'ri chiziq tenglamasi orasidagi bog'lanishni ko'rsatib beramiz. Agar $x = 0$ bo'lsa $y = b$ bo'ladi, $y = 0$ bo'lsa $x = -\frac{b}{k}$ bo'ladi.



Chizmadagi OAB burchak α burchak bilan vertikal bo'lganligidan ular teng bo'ladi. ΔOAB to'g'ri burchakli bo'lganligidan α burchak tangensini topish qiyin emas. OAB to'g'ri burchakli uchburchakning katetlari


uzunliklarini aniqlab olamiz. $|OB| = |b|$, $|OA| = \left| \frac{-b}{k} \right|$ endi esa $tg\alpha$ ni hisoblaymiz.

$$tg\alpha = \frac{|OB|}{|OA|} = \frac{|b|}{\left| \frac{-b}{k} \right|} = k \rightarrow tg\alpha = k$$

To'g'ri chiziq. Fazoda to'g'ri chiziq va uning xossalari ko'rsatib berishimiz davomida asosan, uning kononik ko'rinishdagi tenglamasidan foydalanamiz.


$$\frac{x - x_0}{a_1} = \frac{y - y_0}{a_2} = \frac{z - z_0}{a_3}$$

Ushbu tenglik fazoda to'g'ri chiziqning kanonik ko'rinishdagi tenglamasi deyiladi. Keyingi o'rinlarda ushbu tenglamani l to'g'ri chiziqning kanonik ko'rinishdagi tenglamasi deb o'tamiz. Bu yerda $\vec{a}(a_1, a_2, a_3)$ to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori, $M(x_0, y_0, z_0)$ nuqta l to'g'ri chiziqqa tegishli bo'lgan ixtiyoriy nuqta.




To'g'ri chiziqning koordinata o'qlari va tekisliklariga nisbatan holati yo'naltiruvchi vektorning koordinatlariga bevosita bog'liq.

1-holat: agar $a_1 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq yOz tekislikda, agar $a_2 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq xOz tekislikda, $a_3 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq yOx tekislikda yotadi. Quyida $a_3 = 0$ holat uchun chizma keltirilgan.




2-holat: agar $a_1 = 0, a_2 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq xOy tekislikka parallel, agar $a_2 = 0, a_3 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq yOz tekislikka parallel, agar $a_1 = 0, a_3 = 0$ bo'lsa l to'g'ri chiziq xOz tekislikka parallel bo'ladi. Quyida $a_1 = 0, a_2 = 0$ holat uchun chizma keltirilgan.



Ko'rib turganingizdek, bu yerda l to'g'ri chiziq Ox va Oy o'qlar bilan kesishmaydi.

3-holat: Agar $x_0 = 0, y_0 = 0, z_0 = 0$ bo'lsa u holda l to'g'ri chiziq koordinatalar boshidan o'tadi



Yuqorida holatlar orqali ko'rib turganimizdek fazoda to'g'ri chiziqning koordinata o'qlari va tekisliklariga nisbatan vaziyati $\vec{a}(a_1, a_2, a_3)$ yo'naltiruvchi vektor va $M(x_0, y_0, z_0)$ nuqtaga bevosita bog'liq bo'lar ekan. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz mumkinki $\vec{a}(a_1, a_2, a_3)$ vektorga kol-lenear bo'lgan har qanday vektor l to'g'ri chiziqning yo'naltiruvchi vektori bo'la oladi.

To'g'ri chiziqning kesma ko'rinishdagi tenglamasi. Ushbu tenglamani keltirib chiqaramiz $Ax + By + C = 0$ bu tenglamani $Ax + By = -C$ ko'rinishidan

$$\frac{x}{\frac{-C}{A}} + \frac{y}{\frac{-C}{B}} = 1$$


ko'rinishga o'tamiz va quyidagi belgilashni kiritib

$$\frac{-C}{A} = a, \quad \frac{-C}{B} = b$$

ularni tenglamadagi joyiga qo'yamiz.

$$\frac{x}{a} + \frac{y}{b} = 1$$

to'g'ri chiziqning kesma ko'rinishdagi tenglamasini keltirib chiqardik. Quyi-da ushbu ko'rinishdagi tenglama uchun chizma keltirilgan.



chizmada ko'rib turganimizdek to'g'ri chiziqning kesma ko'rinishdagi tenglamasi orqali koordinata o'qlarining to'g'ri chiziqdan ajratgan kesmasini bilib olishimiz mumkin ekan.

Xulosa. Maqolada "Tekislikda nuqta va uning koordinatalar sistemasida joylashishi, kesma, kesmani berilgan nisbatda bo'lish, to'g'ri chiziq va uning berilishi, to'g'ri chiziqning turli tenglamalari" va "Fazoda nuqta va uning koordinatalar sistemasida joylashishi, kesma, kesmani berilgan nisbatda bo'lish, to'g'ri chiziq va uning berilishi, to'g'ri chiziqning turli tenglamalari" mavzulari analitik geometriya fani taqvimiy rejasida turli xil vaqtlarda joylashgan. Lekin ularning umumiy va farqli jihatlarini taqqoslagan holda o'rgatish talabalarning mavzuga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi degan fikrdamiz. Bundan tashqari har bir talaba mavzularni darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil o'qib, o'rganishida taqqoslash kabi metodlardan foydalansa egallagan bilimlari yanada mustahkam bo'lishiga va yangi bilimlarni chuqur egallashga zamin yaratilardi.

Adabiyotlar

1. 2020-yil 23-sentabrda gi “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining O’RQ-637 sonli qonuni. 40-b.
2. Абдуллаева Б.С. «[Создание методического комплекса для организации самостоятельных работ студентов](#)» Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2013. –С. 272.
3. Баракаев М. и др. “Методика преподавания математики” Учебное пособие. 1-часть, общая методика. – Ташкент: “Наука и технология”, 2017. -С.368.

4. Dadajonov N.D., Jo’rayev M.Sh. Geometriya. 1996, 191-b.

5. Janabaeva A. “Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasi” PHD dissertatsiyasi.

REZYUME. Maqolada talabalar mustaqil ta’lim faoliyatida yuqorida ko’rsatib o’tilgan taqqoslash metodi orqali tekislik va fazoda nuqta, kesma, kesmani berilgan nisbatda bo’lish, to’g’ri chiziqli va uning berilishi, to’g’ri chiziqli turli tenglamalari kabilarning soddalik bilan tushuntirishga harakat qildik. Bu maqola orqali biz aynan ushbu mavzularni aytibgina qolmasdan ushbu metodni qo’llagan holda boshqa mavzular yoki bo’lmasa boshqa fan mavzularini o’qitishda qo’llash yanada ko’proq samara berishga ishonamiz.

РЕЗЮМЕ. В статье посредством указанного выше метода сравнения учащиеся в самостоятельной учебной деятельности могут осуществить линий плоскости и пространства, точки, сечения, деления сечения в заданном соотношении, прямой линии и её распределения, различных уравнений прямой линии и т.д. В статье представлена максимально упрощённая инструкция применения. В данной работе предложены методы использования в интегративном формате с другими аспектами.

SUMMARY. In the article, using the above method of comparison, students in independently educational activities of the plane and space, points, sections, divisions of the section in a given ratio, a straight line and its distribution, various equations of a straight line, etc. The article presents maximum simple instruction on usage. There fore, the article, involves the methods of implementing this way of comparison in integration other aspects.

TALABALARNING HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*E.Tilewov – pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

Tayanch so’zlar: qonun, huquq, huquqiy kompetentlik, kompetentlik, huquqiy madaniyat, huquqiy faollik.

Ключевые слова: закон, право, правоспособность, компетентность, правовая культура, правовой активизм.

Key words: law, right, legal competence, competence, legal culture, legal activism.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot tarixi ijtimoiy munosabatlarning qonunlar asosida tartibga solish rivojlanish kafolati ekanligini tasdiqlaydi. Turli makon va zamonda ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratib kelingan. Bugungi kunda zamonaviy jamiyat hayotida esa ushbu masala yanada dolzarblik kasb etmoqda. Mustaqil O’zbekiston ham jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan bir qatorda mamlakatda fuqarolik boshqaruviga erishish yo’lida dadil odimlab bormoqda. Bu yo’lda jamiyat oldida turgan asosiy masala xususida to’xtalar ekan, O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarga urg’u beradi: “Asosiy masala – qonunlar mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas’ul ijrochilarga o’z vaqtida etkazish, ularning ijrosini to’g’ri tashkil etish hamda qonun talablari-ga qat’iy amal qilishni ta’minlashdan iborat”.

Darhaqiqat, jamiyatda qonunlar ustuvorligiga erishish har bir ijtimoiy munosabatning adolat tamoyili asosida tartibga solinishini ta’minlaydi. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda ham-rohimiz va dasturimiz bo’lsin!” degan chuqur ma’noli so’zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur” ekanligiga e’tiborni qaratadi.

Har qanday jamiyatning buyuk boyligi uning fuqarolaridir. Zero, fuqarolarning mavjudligi, kuchi, sa’i harakatlari-gina jamiyatning buguni va istiqbolini yaratadi. Shu sababli asrlar davomida turli ijtimoiy tuzilmalarda jamiyat bilan fuqaro (shaxs) o’rtasidagi munosabatlar o’rganilib kelingan. Davlat boshqaruvida demokratik, insonparvar g’oyalarning ustuvorligining ta’minlanishi fuqaroning shaxs sifatidagi ijtimoiy maqomini belgilab berish bilan birga uning haq-huquqlari, erkinliklarini himoyalash, sha’ni, g’ururini saqlash imkoniyatini ta’minlagan. Fuqarolarning erkinliklari, haq-huquqlarini muhofaza qilish yo’lida qonunlar, qarorlar qabul qilingan, talablar majmui shakllantirilgan. Davlat miqyosida fuqarolarning haq-huquqlari masalasi dastlab qadimgi Eron shohi Buyuk Kir tomonidan ilgari surilgan.

Jamiyat va shaxsning huquqiy madaniyatini yuksaltirishning muhim yo’nalishlaridan biri uning ilmiy asoslarini tadqiq etish sanaladi. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”da ushbu masalaga ham alohida e’tibor qaratilgan. Hujjatda ta’kidlab o’tilganidek, quyidagi vazifalarning bajarilishi huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi: huquqiy

madaniyatning mohiyati, mazmuni, tarkibiy tuzilishi va namoyon bo’lishining falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va yuridik muammolarini tadqiq etish, uni shakllantirish va yanada yuksaltirish usullarini aniqlash; shaxs umumiy va huquqiy madaniyatining o’zaro bog’liqligi; huquqiy madaniyat va huquqiy fe’l-atvor; ijtimoiy ongni shakllantirishda huquqning o’rni; huquqiy tarbiya va aholining ijtimoiy faolligi; huquqiy ongga ta’sir etish shakllari va usullari; huquqiy ongning psixologik jihatlari; huquqiy ongda ijtimoiy buzilish va salbiy o’zgarishlar; aholining turli qatlam va ijtimoiy guruhlari-ning huquqiy madaniyati kabi dolzarb muammolar bo’yicha ilmiy tadqiqotlar o’tkazilishi; huquqiy madaniyat muammolarini tadqiq etishning sotsiologik negizini rivojlantirish, umuman jamiyatdagi huquqiy madaniyat va aholining turli qatlamlari huquqiy madaniyati holatining haqiqiy manzarasini aniqlash uchun so’rovlar o’tkazish va huquq, uning ijtimoiy qadri hamda tartibga soluvchanlik vazifasi to’g’risida jamoatchilik fikrini aniqlash; huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolarini tadqiq etish; yoshlarni huquqiy tarbiyalashning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqish; O’zbekiston Respublikasining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, xorijiy davlatlardagi huquqiy madaniyatni oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarning natijalarini nashr etish va ulardan foydalanishni kengaytirish, bu sohada ilmiy axborot ayirboshlashni yo’lga qo’yish; ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar o’tkazish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar va ma’lumotnomalar nashr etishni ko’paytirish aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo’yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ilmiy bilimlar-ni ommalashtirish.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasi”da jamiyat va fuqarolarning huquqiy ongi, madaniyatini rivojlantirish jarayonida quyidagi asosiy vazifalarini hal etish zarurligi belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil etkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g’oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy